

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“BIOTEXNOLOGIYA” KAFEDRASI

Ozuqa riboflavini ishlab chiqarish texnologiyasi

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining

TUSHUNTIRISH XATI

31-11guruh talabasi

Meliev Sardor

BMI rahbari

Dots. Maksumova Dilrabo

BMI “Biotexnologiya” kafedrasida

ko‘rib chiqildi va himoyaga ruxsat

etildi.

Kafedra mudiri, dotsent

Xo‘jamshukurov N.A.

Bayonnoma №_____2015 yil

Toshkent – 2015

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

Mundarija

Kirish

I.NAZARIY QISM

- 1 Ishlab chiqarishning fizik-kimyoviy nazariy asoslari
- 2 Asosiy ishlab chiqarish texnologiyasi va uning izoxi
- 3 Asosiy uskunaning ishlash prinsipi va uning texnik tavsiflari
- 4 O'xshash uskunalar tavsifi
- 5 Xom ashyolar tavsifi

II. HISOBLASH QISMI

- 1 Yordamchi materiallar, chiqindilar va ulardan foydalanish
- 2 Uskunalar xisobi (asosiy, qo'shimcha va yordamchi uskunalar xisobi)
- 3 Maxsulotlar xisobi
- 4 Uskunaning issiqlik xisobi (gidravlik va mexanik hisoblar)
- 5 Ishlab chiqarishning texnologik va fizik-kimyoviy nazorat

III. AVTOMATLASHTIRISH, MEHNAT MUXOFAZASI

IQTISODIY QISM

- 1 Asosiy uskunani avtomatlashtirish
- 2 Mexnat muhofazasi
- 3 Fuqaro himoyasi
- 4 Atrof-muhit muhofazasi
- 5 Iqtisodiy qism
- 6 Xulosa
- 7 Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
- 8 Ilovalar (umumiy texnologik jarayon va asosiy uskuna chizmalari – A1 formatda)

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

KIRISH

Ozuqa mahsulotlarini sifatini, ularni biologik xususiyatlarini ko‘tarish uchun muhim omillardan biri bo‘lib, ularni tarkibidagi vitaminlarni miqdori va xilma-xilligi xizmat qiladi. Vitaminlar turli xil kimyoviy tuzilishga ega bo‘lib, organizmni xayotiy faoliyatini faol ushlab turishga xizmat qiladi. Vitaminlarni biologik faolligi, ularni faol guruh sifatida fermentlarni kataliz markazlari tarkibiga kirishi bilan bog‘liq. Shuning uchun ham vitaminlar miqdori kamayganda, tegishli fermentlarni faolligi pasayadi, oqibatda biokimyoviy jarayonlar susayib, ishdan chiqa boshlaydi. Bu esa vitaminlar etishmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan har xil kasalliklarga olib keladi.


Ma’lumki, inson va hayvon organizmi o‘zlariga kerakli bo‘lgan vitaminlarni sintez qila olmaydilar, ammo o‘simliklar esa bunday noyob xususiyat egasidirlar. Ular tabiatda topilgan barcha vitaminlarni (vitamin V_{12} dan tashqari) sintez qilish xususiyatiga egadirlar. Mikroorganizmlar ham ko‘pgina vitaminlarni sintez qilaoladilar. Ko‘rinib turibdiki, o‘simlik va mikrob mahsulotlari inson va hayvon uchun almashtirib bo‘lmaydigan vitamin manbai bo‘lib xizmat qilgan ekan.

Organizmni vitaminga bo‘lgan muhtojligi ikki yo‘l bilan qondiriladi: ovqat va organizmdagi mikroorganizmlarni vitamin sintez qilish xususiyatlari orqali. Bir kamerali oshqozonli organizmlar uchun, vitaminlar bilan ta’minlashni asosiy yo‘li oziq-ovqat tarkibida iste’mol qilish yoki sof holdagi vitaminlarni yoki ularni old mahsulotlarini (organizmda vitaminga mikroflora moddalar) qabul qilishdir, chunki bunday organizmlarda mikroflora unchalik rivojlanmagan bo‘ladi, shu tufayli vitaminlar sintezi deyarli amalga oshmaydi. Kovush qaytaradigan hayvonlarni oshqozon oldi qismida mikrofloraga boy bo‘lganligi uchun vitaminlarga bo‘lgan muhtojlikni ular orqali qondirib turadi. Qishloq xo‘jalik hayvonlarini ozuqasi asosan o‘simliklardan tayyorlanishi, ularni tarkibidagi vitaminlar (V_{12}) o‘simliklarda sintez bo‘lmaganligini e’tiborga olib, hayvon ozuqasiga qo‘shimcha qilib, mikroorganizmlardan ajratilgan servitamin mahsulotlar aralashtirib turiladi.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

V₂ vitaminning ozuqa preparati

Vitamin V₂—riboflavin kimyoviy tabiatiga ko‘ra azot asosli 6,7–dimetilizaalloksazin, D- ribit spirti qoldig‘i saqlovchi birikmadir. Uning kimyoviy tuzilishi quyidagicha:



Bu vitamin oksidlanish-qaytarilish fermentlari faol guruhlarini flavinmononukleotid (FMN) tarkibiga kiradi. SHuning uchun ham organizimda bu vitamin etishmaganda oksidlanish - qaytarilish jarayonlari susayib ketadi. Bu vitaminni cho‘chqalarga berish meyoriy 2 – 7 mg, har bir kilogram quruq ozuqaga qo‘shib beriladi. Hayvonlarga ozuqa sifatiga ishlatilib kelinayotgan o‘simlik mahsulotlarida V₂ vitaminni miqdori juda ham kam. V₂ vitaminini har xil taksomik guruhga kiruvchi mikroorganizmlar – bakteriyalar, achitqi zamburug‘lar, aktinomitsetlar sintez qiladilar, ba’zi- bir shtammlar 1 m³ kultural suyuqlikga 1mg gacha V₂ vitamini sintez qila oladi.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

ISHLAB CHIQRISHNING FIZIK-KIMYOVIY NAZARIY ASOSLARI

Mikroorganizmlardan vitaminlar hosil bo'lish jarayoniga tashqi muhit sharoiti, oziqa moddalari tarkibi, ularning miqdori, metabolitlarning chiqishi, muhitda faol kislotaning o'zgarishi, harorat, muhitning erigan kislorod bilan to'yinishi, produtsent kulturasining holati va o'stirish muddatlari, shuningdek boshqa omillar ta'sir etadi.

Bu omillarning ahamiyati va vitaminlar biosintezi jarayoniga bo'lgan ta'sir darajasi turlicha bo'lib, ular asosan mikroorganizmni o'stirish usuli va produtsentlarning fiziologik xususiyatlariga bo'ysingan holda kechadi. Biroq ba'zi umumiy qonuniyatlarga e'tibor berib o'tish kerak.

Mikroorganizmlarni o'stirishda qattiq va quruq oziqa muhitlarining namligi juda katta ahamiyatga ega. Agarda muhitning namligi 11-20% atrofida bo'lsa, mikroorganizmlar umuman o'smaydi. Birmuncha ko'proq o'sishni namlik 30% bo'lganda kuzatish mumkin. Namlikning 40-45% bo'lishi mikroorganizm kulturasining mo'tadil o'sishiga va spora hosil qilishiga juda qulay sharoit hisoblanadi. Bu holat spora hosil qiluvchi ferment produtsentlarining ekish materiallarini olishda ishlatiladi. Muhitning namligi 53-58% bo'lganda hosil qilingan fermentlarning to'planishi kuzatiladi. Namlik 60-68% bo'lganda fermentlarning biosintezi pasaya boshlaydi va bu holat oziqa muhiti ichiga kiradigan havoning yomon o'tishi bilan tushuntiriladi.

Kulturalarni qattiq oziqa muhitida o'stirish natijasida uning tarkibida quruq moddalarning miqdori kamayib, SO_2 va suvga aylanadi. SHu sababli, agarda mikroorganizmni o'stirish yopiq idishlarda (kolba, maxsus kyuvetalar va h.k.) olib borilsa, bug'lanish natijasida namlikning ortishi kuzatiladi. Agarda o'stirish jarayoni ochiq idishlarda olib borilsa, kulturani va oziqa muhitining qurib qolishi va hosil bo'lgan mahsulot faolligi kamayishi kuzatiladi. Namlikning darajasi va

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

mo‘‘tadilligi har bir o‘stirilayotgan produtsentning fiziologik xususiyatlariga, oziqa muhit tarkibi va boshqa omillarga bog‘liq bo‘lib, har bir omil tadqiqot yo‘li bilan aniqlanadi.

1 tonna, kultura bir soat davomida faol o‘sish bosqichida $7,6 \text{ m}^3$ ga yaqin kislorodni o‘zlashtiradi yoki havoga bo‘lgan nisbatda esa $36,5 \text{ m}^3$ ni o‘zlashtiradi. Zamburug‘larni mo‘‘tadil o‘sishi umumiy havoning sarfi o‘rta hisobda 1 tonna kultura uchun $600-650 \text{ m}^3$ ni tashkil qiladi.

Uchinchi bosqich (idiofaza) kulturani morfologik va biokimyoviy ixtisoslashishi kuzatiladi, ya’ni bunda mikroorganizmlar konidiyalarni va ikkilamchi metabolitlarni hosil qiladilar. Ushbu bosqichda mikroorganizmlar hujayra tashqarisiga chiqariluvchi fermentlarni hosil qiladilar. Bunda o‘stirish xonalarida haroratni $3-4^0\text{S}$ ga tushirish va havo almashtirishni 3-5 marta kamaytirish zarur.

Mikroorganizmlarni suyuq oziqa muhitlarida o‘stirish davomida ham havo bilan ta’minlashga va is gazi bilan ifloslangan havoni fermentyordan chiqib ketish rejimiga e’tibor berish kerak. Masalan, bir kultura har xil aeratsiya sharoitlarida bir xil fermentni har xil xususiyati bilan hosil qilishi mumkin. Umuman olganda havo bilan ta’minlash mikroorganizmni o‘stirish jarayonini va ferment hosil qilishini tezlashtiradi.

O‘stirish davomiyligi ham muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, u maksimum ferment ishlab chiqarish samaradorligini belgilaydi. U juda ko‘p omillarga bog‘liq: oziqa muhiti tarkibi va uni produtsentga uzatish usuli, muhitni havo bilan ta’minlanganlik darajasi, produtsent turi, ferment xususiyati va boshqalardir. o‘stirish davomiyligi ko‘pincha produtsentning fiziologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ***B.mesentericus*** PB uchun - 36 soat bo‘lsa, ***Asp.awamori*** uchun esa 144 soatni tashkil etadi.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

pH ko'rsatkichining ta'siri

Mikroorganizmlarni qattiq oziqa muhiti sirtida o'stirishda muhitning rN ko'rsatkichi uning namligi kam va kuchli buferli bo'lganligi sababli fermentlarning hosil bo'lish jarayonlariga kam ta'sir qiladi. Lekin rN ko'rsatkichi suyuq oziqa muhitida asosiy hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, oziqani sterilizatsiya qilishda va kulturani o'stirish davomida tez o'zgaradi.

qattiq oziqa muhitlari sirtida produtsentlarni o'stirish jarayonida ular suv bilan namlanadi va namlangan muhitning rN ko'rsatkichi 5,0-5,6 tashkil qiladi. Ko'pincha oziqa muhiti sifatida ishlatilgan o'simlik bo'lakchalari xlorid, sulfat yoki sut kislotalarining kuchsiz eritmasi bilan namlanadi va ularning rN ko'rsatkichi 4,5-5,0 atrofida bo'ladi. Kislotalarni qo'shish natijasida oziqa muhiti mikroskopik zamburug'larning o'sishi uchun selektiv sharoitga aylanadi. Bunda havo va oziqani sterilizatsiya qilish xarajatlari bir muncha kamayadi.

Suyuq oziqa muhitlari rN ko'rsatkichi mikroorganizmlarni o'stirishda juda katta ahamiyatga egadir. Eng ko'p e'tiborni albatta, oziqaning boshlang'ich va sterilizatsiya hamda mikroorganizm o'sishi paytida kation va anionlarni iste'mol qilishi natijasida o'zgaradigan rN ko'rsatkichiga berish kerak. SHunday iste'mol natijasida kultural suyuqlik yo kislotali yoki ishqorli muhitga o'tib ketadi.

Muhitning mo'tadil rN ko'rsatkichi produtsentning xususiyatiga bog'liq shunga qaramay ba'zi umumiy qonuniyatlarni ko'rish mumkin.

Zamburug' va achitqi mikroblariga o'xshash organizmlar rN ko'rsatkichi 3,8-5,6 bo'lgan sharoitda yaxshi o'sadi va ferment hosil qiladi. Bakteriyalar esa rN ko'rsatkichi neytral (6,2-7,4) qiymatlarda faol rivojlanadi. yana shunday ma'lumotlar borki, agarda rN ko'rsatkichi faqat ma'lum bir qiymatda ushlab turilsa bunday sharoitda o'stirilgan produtsent bitta kerakli fermentni hosil qilishi mumkin. Ko'pchilik mikroorganizmlar rN omili ta'siriga juda ta'sirchan bo'ladilar

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

va bu ko'rsatkichning sezilarli darajada salbiy yoki ijobiy tomonga o'zgarishi, ularning ferment hosil qilish qobiliyatlariga birdaniga ta'sir qiladi.

Haroratning ta'siri

Ko'pgina vitaminlarning produtsentlari, xususan mikroskopik zamburug'lar, mezofil mikroorganizmlar hisoblanadi va ularning rivojlanishi uchun mo'tadil harorat 22-32⁰S atrofida bo'ladi.

Sanoatda termofil mikroorganizmlardan foydalanishning bir qancha ijobiy tomonlari bor. chunki ularni yuqori haroratda o'stirilganda jarayonning sterilligiga bo'lgan talabni o'z-o'zidan kamaytiradi. Bundan tashqari termofil mikroorganizmlar yuqori haroratga bardoshli bo'lgan fermentlarni hosil qiladi. harorat hosil bo'layotgan ferment miqdorining o'zgarishida katta ahamiyatga egaligi bilan ham ajralib turuvchi omildir.

Mikro- va makroelementlar ta'siri

Mikroorganizmlarni o'stirish uchun oziqa muhitlarini tayyorlashda ferment sanoati yoki qishloq xo'jaligi o'simliklari qoldiqlaridan keng ko'lamda foydalaniladi. qattiq oziqa muhitlari asosan qishloq xo'jaligi o'simliklarining qoldiqlarini maydalab, namligini ma'lum darajaga keltirib va unga boshqa makro va mikroelementlarning eritmalarini aralashtirib tayyorlanadi.

Suyuq oziqa muhitlari tayyorlashda esa kam eruvchan komponentlardan miqdori cheklangan holda foydalanish mumkin. Aks holda uning erimagan qoldiqlari oziqa muhiti va kultural suyuqlikni qayta ishlashda xalaqit beradi. Oziqa muhiti tarkibiga har xil o'simlik va ferment sanoati qaynatmalari va gidrolizatlari dag'al filtratlarini hamda spirt bardasi, mikroblar biomassasi plazmolizatlari, aminokislotalar va boshqalarni qo'shib tayyorlash mumkin. Bularda yirik qoldiqlarning bo'lmasligi to'xtovsiz o'stirish jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Suyuq oziqa muhitlari tarkibida, odatda 2,5% dan 20% gacha quruq moddalar

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	vara ^q
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

eritma hoida bo‘ladi. Muhitning rN ko‘rsatkichi uni tayyorlash vaqtida va sterilizatsiyasidan keyin nazorat qilinadi.

Uglerod manbalari

Vitaminlar asosan indutsibel tabiatga ega bo‘lganligi uchun oziqa muhiti tarkibiga kerakli bo‘lgan fermentni faol to‘plash maqsadida uning induktorini qo‘shish darkor.

Uglerod manbasi mikroorganizmlar uchun eng kerakli bo‘lgan komponentdir, chunki barcha organizmlarda eng asosiy metabolik jarayonlar aynan shu element ishtirokida amalga oshiriladi. Uglerod manbasi vazifasini har xil organik birikmalar bajarishi mumkin va ular hujayra moddalarini boshlang‘ich materiallari hamda energiya manbasi sifatida ishlatiladi.

Mikroorganizmlardan vitaminlar ni olishda uglerod manbasiga alohida e‘tibor berish kerak, chunki ular shu kompleks fermentlarning stimulyatorlari bo‘lib hisoblanadi. Agarda uglerod manbasi (kraxmal, pektin va h.k.) oziqa muhitiga ko‘p miqdorda qo‘shilsa, ular harakatsiz bo‘lib qoladilar va shuning uchun mikroorganizm talabiga qarab ularni qism-qism qilib qo‘shish kerak.

Uglerod manbasini tanlash albatta, mikroorganizmning fiziologik xususiyatlariga va u hosil qiladigan vitaminlarning turiga bog‘liqdir hamda har bir mikroorganizm uchun tadqiqotlar yo‘li bilan aniqlanadi.

Azot manbalari

Muhitda azot manbasi vazifasini mineral tuzlar yoki azotning organik birikmalari bajarishi mumkin. Masalan, proteinazalar hosil bo‘lishida azot manbalari nafaqat oziqa muhitining muhim komponent sifatida, balki, biosintez jarayonini faollashtiruvchi vazifasini ham bajaradi. Eng yaxshi natijalar muhitga oqsillar va ularning parchalanish mahsulotlarini qo‘shish yo‘li bilan olinadi.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	vara
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

Azotning organik manbalariga hayvonlarning har xil oqsillari (pepton, kazein, gemoglobin, jelatin, tuxum oqsili), o'simlik xom ashyolari oqsillari (yog'sizlantirilgan soya, makkajo'xori ekstrakti), mikroorganizmlarning biomassasi hamda oqsillarning kislotali, ishqorli va fermentativ gidrolizatlari, aminokislotalar va boshqa birikmalar kiradi.

Azotning noorganik manbalari sifatida asosan har xil azot kislotasi va ammoniyni tuzlaridan foydalaniladi. Noorganik azot manbalarini tanlashda kation va anionlarning fiziologik ta'siriga e'tibor berish kerak. Muhit rN ko'rsatkichini ishqoriy yoki kislotali tomonga o'zgarishi produtsentning biosintetik xususiyatiga qattiq ta'sir qiladi.

Ko'p tadqiqotchilarning ma'lumotlariga qaraganda, azotning organik manbalaridan foydalanish noorganiklarga nisbatan ko'proq ijobiy hisoblanadi. Lekin ularni birgalikda ma'lum o'rganilgan miqdorda ishlatilsa, ularning ta'siri ko'p hollarda ijobiy tomonga buriladi.

Fosfor manbalari

Fosfor elementi oziqa muhitiga fosfor kislotasi tuzi yoki organik birikma - fitin shaklida qo'shiladi. Fosfor muhit uchun eng zarur bo'lgan elementdir, chunki u hujayrada energiya almashinuvi jarayonida ATF, ADF va AMF tarkibiga kiradi.

Mikroorganizmlar logarifmik o'sish fazasida fosfor elementini juda ko'p miqdorda talab qiladi. chunki bu bosqich hujayra moddalarini va biokimyoviy jarayonlarning intensiv o'tishiga to'g'ri keladi. Odatda bu davrda 83-91% gacha bo'lgan fosfor oziqa muhitidan mikroorganizm biomassasiga o'tadi.

Fosfor proteaza, amilaza, pektolitik kabi fermentlarning biosintezini tezlashtiradi. Agar fosforni fosfor kislotalarining tuzi ko'rinishida tabiiy qaynatmalari bor muhit tarkibiga qo'shilsa eng yaxshi natijalarga erishish mumkin.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

Vitaminlar va o‘stirish moddalari

Mikroelementlarsiz, vitaminlarsiz va o‘stirish moddalarisiz mikroorganizm hujayrasidagi moddalar almashinuvi jarayonini to‘liq o‘tishi ehtimoldan uzoqdir. Lekin hamma mikroorganizmlar ham o‘sinh va rivojlanishlari uchun bu birikmalarni qo‘shilishini talab qilavermaydi. SHu nuqtai nazardan nazardan kelib chiqib mikroorganizmlar ikki turga bo‘linadi:

Agarda auksoavtotrof mikroorganizm o‘stiriluvchi muhitga vitaminlar va o‘stiruvchi birikmalar qo‘shilsa, ular bu produtsentning o‘sinh va rivojlanishiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi.

Agarda auksoeterotrof produtsent oziqasiga juda ham kam miqdorda yuqorida zikr etilgan moddalar qo‘shilsa, ularning o‘sinh va rivojlanishi sezilarli darajada tezlashadi. Afsuski juda ko‘p produtsentlar auksoeterotrof organizmlar bo‘lib, ular fermentlar biosintezida qatnashuvchi V vitaminlar guruhi kompleksi (V_1 , V_3 , V_5 , V_6 , V_8) , ya’ni biotin, inozit, pantoten kislota, tiamin, piridoksin va boshqalarning oziqada bo‘lishiga muhtojdirlar.

Biotin vitaminlar ning hosil bo‘lish reaksiyalarida qatnashadi, bir necha fermentlarning faol markaziga kiradi va yot kislotalarining karboksillanish va dekarboksillanish jarayonlarini katalizlaydi. Inozit esa fosfor kislotasining olti molekulasini bilan birikib achitqi mikroblarni o‘sinhini tezlashtiruvchi inozitfosfor kislotasini hosil qiladi. Pantoten kislota KoA tarkibiga kirib, hujayradagi eng muhim modda almashinuv jarayonlarida ishtirok etadi.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

ASOSIY ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI VA UNING IZOXI

Oziqa riboflavinni produtsenti *Eremthecium ashbyii* achitqi zamburug'ini seleksiya qilib tayyorlangan shtammi hisoblanadi. Riboflavin achitqi xujayralarini vakuolalarida to'planib, mikroorganizimga o'ziga xos bo'lgan sariq rang beradi. Katta hajmda ishlab-chiqarish uchun alohida tarkibga ega bo'lgan suyuq ozuqa muhiti tayyorlanadi ekuv materiallari esa maxsus uskunalarda (kichikroq fermentlar) o'stiriladi.

Riboflavinning ozuqa konsentrati *Eremothecium ashbyii* zamburug'idan olinadi. Bu kulturaning kammchiligi shundan iboratki, u turg'un emas. *Eremothecium ashbyii* zamburug'i xona xaroratida saqlanganda, yoki past xaroratda xatto liofilizatsiyalanganda u o'zining yuqori darajada riboflavin sintez qilish xususiyatini yo'qotadi. *Eremothecium ashbyii* shtammlarini aktiv xolatda saqlash uzoq vaqt (8-10 oy davomida) saqlash uchun uni sistematik tarzda qattiq oziqa muxitiga qayta –qayta ekish va zarg'aldoq rangdagi koloniyalarni tanlab olish tavsiyaya etiladi.

Ularni probirkada o'stirish uchun oziqa muxit tarkibida soya uni, qand lavlagi qandi, agar, rN 6,8 yoki ikkinchi varinti achitqi ekstraktipepton, glyukoza, agar rN 6,8 bo'lishi kerak.

O'stirish vaqti 5-7 sut. Kolbalar uchun oziqa muxit tarkibi : soya uni, lavlagi qandi, (1- variant) yoki pepton, qand lavlagi, makkajo'xori ekstrakti, KH_2PO_4 , MgSO_4 , kungaboqar yog'i (2-y variant). O'stirish vaqti 48 soat. Inokulyatordagi oziqa muxiti tarkibida makkajo'xori ekstrakti, shakar, KN_2RO_4 , texnik yog'.

Riboflavin preparatini olish texnologik sxemasi quyidagicha

Inokulyator 8da *Eremothecium ashbyii* zamburug'i 21-26 soat davomida o'stirildai, so'ngra fermentator 7ga o'tkaziladi. Fermentatrodagi oziqa muxiti tarkibi quyidagicha: makkajo'xori uni, soya uni, makkajo'xori ekstrakti, shakar, KN_2RO_4 , SaSO_3 , NaSI i texnik yog'. Oziqa muxiti aralashtirgich 6da 120-122°S xaroratda bir soat davomida sterillanadi.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

Mikroorganizmni fermenterda xujayralar lizisi boshlanishi va sporalar hosil qilguniga qadar o‘stiriladi. Bu jarayon mikroskopda kuzatilib boradi. O‘stirish xarorati 28-30°S, fermenterdagi xavo bosimi $(1-2) \cdot 10^4$ Pa, havo sarfi 1 l kultural suyuqlik uchun minutiga 1,5-2,0 l. Jaryon tugagandan so‘ng riboflavinning chiqish miqdori 1200 mkg/ml. Riboflavinning oziqa preparatini olish uchun kultural suyuqlik vakuum 10 ostida bug‘latiladi. Olingan konsentrat odatda, 5,6 mg/ml vitamin V₂ va 20% quruq modda saqlagan bo‘ladi. Quyultirilgan vitamin konsentrati purkab qurutgich uskunasi 11da, namligi 5-10% qolgunga qadar quritiladi. Quritish jarayonida bu vitaminni mo‘tadillashtirish maqsadida kultural suyuqlik xlorid kislotasi bilan rN 4,5-5,0 gacha nordonlashtiriladi quritilgan plenka maydalagich 12 da kukun xoligacha maydalanadi.

Keyin kepak va makkajo‘xori uni bilan aralashtirilib, 20 grammdan polietilen paketchalarga solib chiqiladi va bu paketchalarga qog‘oz qopcha solib, tegishli etiketkalar bilan jihozlantiriladi. Tayyor mahsulotda vitaminni miqdori 1% dan kam bo‘lmasligi kerak. Tayyor mahsulotni saqlash davri 1 yil.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

ASOSIY USKUNANING ISHLASH PRINSIPI VA UNING TEXNIK TAVSIFLARI

Asosiy uskuna mexanik aralashtirgichli barbatajli fermenter

Mexanik aralashtirgichli barbatajli fermentatorlar biologik aktiv moddalar sintez qiluvchi produtsent mikroorganizmlarni steril jarayonlarda o‘stirish uchun foydalaniladi. Bunday turdagi fermenterlar silindr shaklidagi vertikal apparatlar bo‘lib, X18N10T po‘lati va bimetallardan tayyorlangan ellips shaklidagi tubdan va qopqoqdali bo‘ladi. Balandligining diametriga nisbati 2,6:1 nisbatda bo‘ladi. Apparatning qopqog‘ida 1-elektraxarakatlantirgich, 2-motor-reduktor, 3-muflar, 4-podshipnik, 5-salnikdan iborat qurilmani aralashtirishini boshqaruvchi xarakatlantiruvchidan iborat bo‘ladi. O‘sha urning o‘zida oziqa muxiti va ekish materialini solish uchun shtutser 18, havoni berish va chiqarish uchun shtutserlari, kuzatish oynasi, yuvish uchun ishlatiladigan mexanik golovkalar, saqllovchi klapanlar o‘rnatilgan.

Mikroorganizmlar suspenziyasini quyib olish uchun qurilmaning tagida chiqarish shtutseri 16 joylashgan. Korpus 7 ichida yopiq turbinlardan 8 iborat aralashtiruvchi qurilma o‘rnatilgan val 6 o‘tadi. Barbater 13 , havo beruvchi trubal11 bilan birikkan va perforatsiyalangan trubalardan iborat ajratiluvchi romb ko‘rinishida tayyorlangan.

Uning yuqori qismida shaxmat tartibida 2000 ...3000 tirqishlar joylashgan. Motor-reduktor2 tomonidan val 6 va aralshtiruvchi qurilmalar 8, 12, 14 muftalar 10 va 15 bilan aylantiriladi. Fermentator 6...8 pog‘onali seksiyalardan tashkil topgan rubashka 17 bilan ta‘minlangan. Har bir seksiya burchak profildan tashkil topgan 8ta nativ kanallardan tashkil topgan. Rubashkaning sovitiladigan maydoni yuzasi 60 m², zmeeviklardan 9 tashkil topgan ichki yuzasi diametri 600 mm va umumiy uzunligi 2,4 m.

Fermentator 0,25 MPa bosimda ishlshga, 130...140 °S xaroratda strerillashga, shuningdek tokning kamayganida ham ishlashga mo‘ljallangan.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

Mikroorganizmlarni o‘stirish jarayonlarida fermenter ichidagi havo bosimi 50 kPa atrofida bo‘ladi, steril havoning sarfi 1 m³/min gacha bo‘ladi. Apparatning balandiligi 8 m bo‘lganda, undagi suyuqlik ustuni balandligi 5...6 mni tashkil etadi.

Jarayonning sterilligini ta‘minlash uchun aralashtiruvchi qurilmaning bug‘li ximoyasi uchun vallarning burchak zichligi ko‘zda tutilgan. Burchak zichlashtirgichlar 0,28 MPa bosimda va qoldiq bosim 2,7 kPa bo‘lmaganda, xarorat 30..250 °Sdan kam bo‘lmaganda va valning aylanish chatotasi 500 min/l gacha bo‘lganda ishlashga mo‘ljallangan. Burchak zichliklar yordamida oziqa muxitning oqib ketishini va chiqib ketishi kerak bo‘lgan xavoning kirishini bartaraf qilish mumkin.

Oziqa muxitga tegib turuvchi burchak zichlashtiruvchilar X18N10T va X17N13M2T po‘latlar, shuningdek VT-10Ttitandan tayyorlanadi. ISH resursi 8000 soat bo‘lganda burchak zichlashtiruvchilarining to‘xtovsiz ishi davomiyligi 2000 ch soatdan kam emas. Burchak zichlashtiruvchilari zonasida valning ruxsat etilgan radial urishi 0,25 mm, valning burchakli urishi 0,25° dan kam bo‘lmaydi.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

O'XSHASH USKUNALAR TAVSIFI

So'nggi yillarda biotexnologik sanoatda qo'llaniladigan ko'pgina fermentyorlar paydo bo'lib, ular biomassani aerob o'stirish va uning metabolitlarini olishga mo'ljallangandir. Aerob jarayonlarning effektivligini ko'rsatuvchi asosiy parametr bo'lib, gazning suyuqlik bilan kontaktda bo'luvchi yuzasi hisoblanadi.

Ushbu yuzaning hosil bo'lish usuliga qarab gaz-suyuqlik fermentyorlarini uchta asosiy guruhga ajratish mumkin, ular,

- erliftli,
- gazni mexanik dispergirlovchi,
- oqimli.

Erliftli fermentyorlarda fazalarning kontakt yuzasi gazni gaz taqsimlovchi tuzilmalar orqali sirkulyasiyadagi suyuqlik qatlamiga kiritganda hosil bo'ladi. Apparatning katta ishchi hajmi kerak bo'lganda, hamda gaz fazasi sifatida tarkibida massa almashinuvida zarur sharoitlarni ta'minlash va kultural muhitni pnevmoaralashtirish uchun etarli kinetik energiyani o'zida tutuvchi 80% azot bo'lgan havo ishlatilganda bu fermentyorlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu fermentyorlar yuqori ekspluatatsion ishonchlikka ega, chunki konstruksiyaning ichki harakatlanuvchi elementlariga ega emas. Ularda suyuqlik sirkulyasiyasi shartlarini buzmaganda holda, etarlicha katta yuza maydoniga ega issiqlik almashinuvi tuzilmalarini joylashtirish qulay.


Gazni mexanik dispergirlovchi fermentyorlarda apparatga kiritiladigan gaz suyuqlik bilan mahsus tuzilmalar yordamida aralashtiriladi. Ularni apparatning $V \leq 100 \text{ m}^3$ hajmida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ular toza gazda ishlaganda effektiv hisoblanadi. Bunda moddaning gazdan o'tkazilishining etarlicha yuqori intensivligiga rivojlangan fazalararo yuza hisobiga erishiladi. Kichik hajmli apparatlar yuqori bosimda ishlashi mumkin.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

Oqimli fermentyordagi gaz nasadkalar sistemasi orqali apparat kesimi bo'ylab taqsimlanadigan suyuqlik oqimlari bilan ejektirlanadi.

Mikrobiologik sanoatda, asosan, o'zaro konstruksiyasi va ishlash sharoitlari bilan farqlanadigan uch turdagi erliftli fermentyorlar qo'llaniladi.

Achitqili ishlab chiqarishda eng keng tarqalgan va ko'pincha aeratorlar yoki kyuvetalar deb ataladigan kyuvetali aeratorlarga ega fermentyorlar (1-rasm).



1-rasm. Kyuvetali aeratorlarga ega fermentyor.

Bunday apparat yassi tub qismi va konussimon qopqoqqa ega silindrik idish (3) dan iborat. Idish ichida kyuvetalar (4) o'rnatilgan bo'lib, ularning soni fermentyor hajmiga qarab 3 tadan 8 tagacha o'zgaradi. Kyuvetalarning ikkitali devorlari orasidagi bo'shliqqa shtutser A orqali suv kiritilib, ular issiqlik almashinuvi tuzilmalari bo'lib xizmat qiladi. Issiqlik ajralishi intensiv o'tishi uchun kyuveta bo'shlig'idagi suvga spiral kanal hosil qiluvchi lenta joylashtiriladi. Havoni fermentyorga markaziy quvur (2) orqali kiritiladi va quvurlar (6) bo'ylab gaz taqsimlagichlar (barbotyor) (7) ga etib keladi. Gaz taqsimlagich past qutidan iborat bo'lib, uning silindrik devori bilan pastki qopqog'i orasida havoning chiqishi uchun tor dumaloq teshik bo'ladi. Bu teshikning gidravlik qarshiligi shunday mo'ljallanadiki, bunda barcha barbotyorlar bo'ylab havoning bir me'yorda berilishi

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

ta'minlanadi. Oziqa muhiti, ammiakli suv va ekiladigan achitqi shtutserlar orqali bachokka (1) beriladi va keyin quvurlar (5) bo'ylab barbotyor qutisiga (7) kelib tushadi. Havo barbotyordan chiqishda yuqoriga ko'tarilib, o'zi bilan kyuvetalarga sirkulyasiyalovchi kultural suyuqlik bilan aralashgan oziqa muhitini olib o'tadi. Havo fermentyor qopqog'ida o'rnatilgan tomchili suyuqlik separatori (8) orqali tashqariga chiqariladi. Achitqili suspenziya apparatdan shtutser V orqali chiqadi.


Fermentyorning har bir kyuvetasi cho'ktirilgan erliftga o'xshab ishlaydi. Havoning uzatilishida kyuvetada gaz-suyuqlik aralashmasi hosil bo'lib, uning gaz tarkibi apparatining kyuvetalararo bo'shliqdagi achitqi suspenziyasining gaz tarkibidan yuqoriroqdir. Buning natijasida uning pastki qismida (kyuvetalar zonasida) qattiq fazasining cho'kmaga tushishiga to'sqinlik qiluvchi suspenziya sirkulyasiyasi kyuvetalardan uzoqlashgan sari so'nib boradi, va apparatning yuqori qismida flotirlangan mikroorganizmlarga ega baland qatlamli barqaror ko'pik hosil bo'ladi. Ushbu keraksiz holatni faqatgina apparatning butun hajmida suyuqlikni intensiv aralashtirish hisobiga bartaraf etish mumkin. Buning uchun barbotaj quvur (kyuveta)larning balandligini shunday qilish lozimki, bunda ularning yuqorigi kesimi ko'pik satxidan 1 m dan katta bo'lmagan masofada joylashgan bo'lishi kerak.

Erliftli fermentyorlar. Yirik gaz pufaklarining hosil bo'lishini kichraytirilgan diametrli barbotaj quvurlarga ega fermentatorlarda bartaraf qilish mumkin. Bunday apparatning variantlaridan biri 2-rasmda ko'rsatilgan.

U qopqoqsiz kojuxoquvurli issiqlik almashgichlardan iborat sakkizta aerator (2) joylashtirilgan idish (1) ko'rinishida tayyorlangan. uvurlarning ichki diametri 100 mm ga va balandligi 6000 mm ga teng. Havo fermentorga quvur (3) orqali kiritiladi va gaz taqsimlagichlar bo'ylab (4) tarqatiladi. Gaz taqsimlagich past silindrik qutidan iborat bo'lib, uning yuqorigi qopqog'ida havoni har bitta barbotaj quvurga uzatish uchun nasadkalar o'rnatilgan. Aeratorlarning quvur orasidagi bo'shlig'i shtutser A ga uzatiladigan suv orqali sovutiladi. Fermentatorning

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

yuqorigi qopqog'ida mexanik ko'pikli o'chirgichlar (5) o'rnatilgan bo'lib, ulardan qayta ishlangan havo kollektor (6) ga kiritiladi va undan shtutser B orqali chiqariladi.



2-rasm. Aeratorli kojuxoquvurli fermentyor

3. Gaz pufaklarini intensiv maydalash va ularni suyuqlik hajmida bir me'yorda taqsimlash hisobiga rivojlangan gaz-suyuqlik fazalararo yuzasini xosil qilishning mumkinligi Ushbu jarayonning asosiy yutug'i bo'lib hisoblanadi.

Gazni mexanik dispergirlovchi fermentatorlarni ikki guruxga ajratish kerak: erkin hajmda va sirkulyasion konturda aralashtirgichga ega fermentyorlar.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

FOYDALANILGAN XOM ASHYOLAR TAVSIFI

Makkajo‘xori ekstrakti –o‘zining tashqi ko‘rinishidan quyuv suyuqlik bo‘lib, rangi och sariqdan qoramtir ranggacha bo‘lgan pag‘a-pag‘a suspenziyadir. Kimyoviy tarkibi, makkajo‘xorining navi, o‘sish sharoiti, saqlanishi va quritilishi, shuningdek makkajo‘xorining namlanish jarayonlariga bog‘liq holda keng ko‘lamda o‘zgarib turadi. Ekstraktda quruq moddalar miqdori 48 %dan kam bo‘lmasligi zarur. Quruq ekstrakt hisobida azot saqlovchi moddalarning umumiy saqlanishi 40-50%gacha bo‘ladi. Umumiy azot 6,4-8%. Namlash darajasi makkajo‘xori oqsillarining fermentativ gidrolizlanishi boshlanib ketadi. Bunda deyarli azot saqlovchi moddalarning yarmi o‘zida aminokislotalar, polipeptidlar va oqsillarni namoyon qiladi. Maxsulotlar chiqishining miqdori 24% dan oshmasligi lozim. Asosiy kul elementlari fosfor, kaliy va magniy hisoblanadi.

Ekstraktdagi fosforning umumiy miqdori 5%ni tashkil etadi. Bundan tashqari ekstrakt tarkibida ba‘zi o‘stirish moddalari va biostimulyatorlar, gormonlar va B gurux vitaminlari (biotin) mavjud. SHunday qilib, makkajo‘xori ekstraktining oziqa muxiti komponenti sifatida ahamiyati juda yaxshi, assimlyasiya bo‘ladigan organik azot , uglerod hamda mikroelementlar va ballast moddalar saqlashi bilan ajralib turdi.

Soya uni don yanchilganidan so‘ng soya yog‘i olingandan keyin qoladigan soya kunjarasi va shrotidan olinadi. Foydalaniladigansoya uni xom ashyolari, yog‘siz, yarim yog‘langan va juda yog‘li turlariga ajratiladi.

Bundan tashqari soya uni dezodirlangan(bug‘ bilan ishlov berilgan) va dezodirlanmagan bo‘lishi mumkin. Dezodirlangan soya unini bir yilgagina saqlash mumkin, bunda fermentlar inaktivatsiyasi sodir bo‘ladi. Dezodirlanmagan soya unini esa bir yarim, uch oy saqlash mumkin. Fermentatsiya uchun soya unining asosiy ahamiyati uning tarkibidagi azot saqlovchi moddalar, birinchi navbatda oqsillardir. Asosiy oqsil, deyarli barcha aminokislotalarni saqlovchi hisoblanadi, Glitsinga nisbatan glutamin kislotaning miqdori ko‘proq bo‘ladi. Soya uni

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

25%gacha uglerodlar saqlaydi, shuning uchun undan ko‘pincha uglevodlar manbai sifatida foydalaniladi. Kul moddalari miqdori esa 4,5-6,5% bo‘ladi

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
O'zgar	bet	<i>hujjat №</i>	imzo	sana		

YORDAMCHI MATERIALLAR, CHIQINDILAR VA ULARDAN FOYDALANISH

Riboflavin vitaminini ishlab chiqarishda yordamchi materiallar sifatida quyidagi moddalardan foydalaniladi:

Ko‘pik so‘ndiruvchilar. Produtsentni o‘stirish mobaynida

Hosil bo‘lgan ko‘pikni so‘ndirish uchun quyidagi moddalarning biridan foydalaniladi: -Texnik olein kislota GOST 7580-55 asosida chiqariladi. Moysimon suyuqlik 10 °S dan past xarorat oq yoki sag‘ish rangli pastasimon massaga aylanadi. Kislotaning zichligi 0,8320 g/dm³.

Kasholot yog‘i GOST 8714-72 bo‘yicha ishlab chiqariladi. Moysimon rangsiz suyuqlik. Kasholot yog‘ining kislotalar soni 40. 0,5 % gacha bo‘lgan qo‘shimchalarga ega. Bundan tashqari kungaboqar, paxta, makkajo‘xori yog‘laridan ham ko‘pik so‘ndirishda foydalaniladi.

Natriy gidroksid (NaOH) sanoatda GOST 22637 bo‘yicha kaliy gidrooksidi (KOH) UJCN 9185-78 ishlab chiqariladi. Texnik soda GOST 5100-73 ishlab chiqariladi.

Texnologik uskunalarni yuvish uchun foydalaniladi. Riboflavin vitaminini ishlab chiqariladigan chiqindilarga produtsent mikroorganizmlarning biomassasi suyuqliub kiradi.

Vitamin V2 biomassali kultural suyuqligidan olinadi..

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

USKUNALAR XISOBI (ASOSIY, QO‘SHIMCHA VA YORDAMCHI USKUNALAR XISOBI)

Riboflavin vitamini ishlab chiqarish uchun mexanik aralashtirgichli barbatajli fermenterdan foydalaniladi. Fermentatsiya davriy tartibda amalga oshiriladi.

Nechta fermenterning zarurligini hisoblaymiz

$$n = G \cdot \tau \cdot k : V \cdot 24,$$

bunda: G – oziqa muxit sarfi, m^3/sut ;

τ - fermenterning aylanishi, s;

k – zaxira koeffitsienti ($k = 1,2$); $\tau = 1,1$

V – fermenterning geometrik xajmi, m^3 ;

$\tau = 0,70$). τ - fermenterni to‘ldirish koeffitsienti (

Bir kunda fermenterdagi kultural suyuqlikni quyib olish soni

$$m, \text{ unda } \tau = G : V \cdot \tau$$

$$n \cdot \tau \cdot k : 24 = 2 \cdot 142 \cdot 1,2 : 24 = 14,2 \tau = m \cdot \tau$$

zarur bo‘lgan ekish apparatlari soni

$$n_p \cdot \tau = m \cdot \tau \cdot p \cdot \tau \cdot k : 24 = 2 \cdot 30 \cdot 1,2 : 24 = 3,0$$

bunda τ_p – ekish apparatining aylanishi, s.

Aralashtiruvchi qurilmalarning hisobi

Aralashtirgich o‘zlashtiradigan quvvatni quyidagi formula yordamida aniqlanadi

$$N = k_N \cdot \tau \cdot s \cdot \tau \cdot n^3 \cdot \tau \cdot d^5$$

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

Bunda k_N – quvvat kriteriysi (aralashtiruvchi qurilmaning turiga va muxitning xaraktalanish xarakteriga bog‘liq);

s – suyuqlik zichligi, kg/m^3 ;

n – aralashtirgichning aylanish chastotasi, s^{-1} , 2.88 s^{-1} [1].

d – aralashtirgich diametri, m.

Trubinali aralashtirgichni tanlaymiz

$$d_m = 0.33 \cdot D_{f-rich} = 0.33 \cdot 3600 = 1188 \text{ mm}$$

Quvvat kriteriysi k_N ni aniqlash Re kriteriysi farqidan va aralashtirgich konstruksiyasi bo‘yicha aniqlanadi:

$$Re = n \cdot \chi \cdot s \cdot \chi \cdot d^2 / m$$

Bu erda m – suyuqlikning dinamik qovushqoqligi koeffitsienti,

$$PaCHs, m = 0.001.$$

$$Re = \frac{2.88 \cdot 1087.15 \cdot 1.188}{0.001} = 4.4 \cdot 10^6$$

$$k_N = 4$$

$$N = 4 \times 1087.15 \times 2.88^3 \times 1.188^2 = 146.6 \kappa Bm$$

Elektr o‘tkazuvchining quvvati:

$$N_e = (k_n \cdot \chi \cdot k_n \cdot \chi \cdot \sum k_i \cdot \chi \cdot N + N_{upl}) / z$$

Bu erda k_n – to‘siqlarni hisobga olgandagi koeffitsient, (to‘siqsiz apparatlar uchun $k_n = 1,25$);

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

k_i – sig‘imdagi ichki qurilmalarni hisobga olgandagi koeffitsient, (zmeevik mavjud bo‘lgan holda $k_i = 2$);

N_{upl} – zichliklarida valning ishqalanishiga sarflanadigan quvvat, Vt ;

z – privodning foydali ta’sir koeffitsienti;

k_n – apparatni to‘ldirish koeffitsienti.

$$k_n = (N_j / D)^{0.5},$$

bunda N_j – suyuqlik ustuni balandligi, m , $N_{suyuq} = 8 \text{ m}$;

D – apparat diametri, m , $D = 3.6 \text{ m}$ [1].

$$k_i = (8 / 3.6)^{0.5} = 1.5$$

Burchak zichliklarida:

$$N_{zich} = 6020 \text{ CH } d^{1.3},$$

Bu erda d – val diametri taxminan

$$d = s \text{ CH } d_{aralshtirgich},$$

bunda – aralashtirgich turiga bog‘liq xolda koeffitsienti, trubasimon uchun $= 0,117$.

$$d = 0.117 \times 1188 = 126.36 \text{ mm} = 0.13 \text{ m}$$

$$N_{yni} = 6020 \times (0.13)^{1.3} = 424 \text{ Nm}$$

$$N_g = (1.25 \times 1.5 \times 2 \times 146.6 \times 10^3 + 424) / 0.9 = 611 \text{ kNm}$$

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

MAXSULOTLAR HISOBI

Yiliga 20 tonna triptofan aminokislota ishlab chiqarish uchun oziqa muxiti tarkibiga quyidagi maxsulotlar sarflanadi.

nomlanishi	Bir yildagi sarfi
Texnik saxaroza 10%	2000000 kg
Makkajo‘xori ekstrakti 2%	400 000 kg
Fosfat kaliy 0,06%	12000kg
Magniy sernokisli 0,1%	10000kg
Natriy xlor 0,05 %	10 0000
Mochevina 0,5%	100000

B.subtilis bakteriyasi suyuqlikda kulturalanganda 1l kultural suyuqlikda 10g gacha B2 vitamini sintez qiladi.

1m³ kultural suyuqlikda 10 kg bo‘lsa,

2000m³kultural suyuqlikdan 2 tonna riboksin riboksin olinadi.

20000m³kultural suyuqlikdan 20 tonna riboksin vitamini olinadi.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

USKUNANING ISSIQLIK XISOBI (GIDRAVLIK VA MEXANIK HISOBLAR)

FERMENTERNING ISSIQLIK HISOBI

Fermentrning issiqlik balansini quyidagi formula asosida hisoblash mumkin:

$$Q_1 + Q_2 + Q_3 = Q_4 + Q_5 + Q_6,$$

bunda Q_1 – fermentatsiya jarayonida ajraladigan biologik issiqlik;

Q_2 – aralashtiruvchi qurilmadan yuzaga keladigan issiqlik;

Q_3 – xavo bilan beriladigan issiqlik;

Q_4 – ishlatilgan xavo bilan chiqadigan issiqlik;

Q_5 – sovu suv chiqarilishi kerak bo‘lgan issiqlik;

Q_6 – atrof muxitga tarqaladigan issiqlik.

Bitta operatsiya uchun ketadigan issiqlik hisobi:

$$Q_1 = q_1 \times V_1,$$

Bunda q_1 – nisbiy issiqlikajratgich, $\text{kJ}/(\text{m}^3 \cdot \text{s})$;

V_1 – fermenterdagi oziqa muxit xajmi, m^3 .

$$Q_1 = \frac{70 \cdot 28}{3600} = 544 \text{ kJm}$$

$$Q_2 = N \times \eta,$$

Bunda N – aralashtiruvchi qurilmani kuchlantirgichning quvvati, kVt
 $N=146.6 \text{ kVt}$;

z – elektrkuchlantirgich ta’sirining foydali koeffitsienti, $z=0.80$.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

$$Q_2 = 146.6 * 0.8 = 177.28 \text{ kJ}$$

Xavo orqali fermenterga beriladigan issiqlik miqdori:

$$Q_3 = G_{\text{xavo}} \times \rho_1 \times I_1$$

Bunda G_{xavo} – xavoning fermentatsiyaga sarfi, $\text{m}^3/(\text{m}^3 \cdot \text{ch})$;

ρ_1 – kirayotgan xavoning zichligi, kg/m^3 ;

I_1 - kirayotgan xavoning issiqlik miqdori, quruq xavodv kJ/kg .

Xavoning namliu tutishini va uning entalpiyasini Ramzinning 1-x diagrammasi bo'yicha yoki tenglamalar bo'yicha analitik hisoblash orqali aniqlash mumkin:

$$I_1 = (1.01 + 1.97 \times x_1) \times t_1 + 2493 \times x_1$$

$$x_1 = \frac{0.622 \times \varphi \times p_{\text{nasyc}}}{P - \varphi \times p_{\text{nasyc}}}$$

Bunda x_1 – xavoning namlik tutishi, kg suv bug'i / kg quruq xavo;

t_1 – xavo xarorati, $^{\circ}\text{S}$;

p_{nas} – xavoning t , Pa xaroratida to'yingan suv bug'ining bosimi;

P – xavoning umumiy bosimi , 0.20-0.25 MPa;

j - xavoning nisbiy namligi, yalp. ulushi.

$$\rho_1 = \frac{3.48 \times 10^{-3}}{T} \times (P - 0.378 \times \varphi \times p_{\text{nasyc}})$$

bunda T – xavo xarorati, K .

$$\delta = \frac{0.622 \times 0.4 \times 12330.6}{0.2 \times 10^6 - 0.4 \times 12330.6} = 0.016 \text{ g/g}$$

Boshlang'ich ma'lumot sifatida kirayotgan xavoning quyidagi ko'rsatkichlarini qabul qilamiz:

$$t_1 = 50^{\circ}\text{S}; j = 0.4;$$

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

$r_{to'y.} = 12330.6 \text{ Pa}$ (XXXVIII [1] jadval bo'yicha 50°Sda).

U xolda

$$I_1 = (1.01 + 1.97 \times 0.016) \times 50 + 2493 \times 0.016 = 91.96 \text{ kJ} / \text{kg}$$

$$\rho_1 = \frac{3.48 \times 10^{-3}}{50 + 273} \times (0.2 \times 10^6 - 0.378 \times 0.4 \times 12330.6) = 2.13 \text{ kg} / \text{m}^3$$

$$Q_3 = \frac{50 \times 70 \times 2.13 \times 91.96}{3600} = 190.4 \text{ kJ}$$

Bunda 50 – xavoning fermentatsiyaga sarfi, $\text{m}^3/(\text{m}^3 \cdot \text{ch})$;

- fermenterdagi oziqa muxiti xajmi, m^3 .

Ishlatilgan xavo quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

xarorat $t_2 = 35^\circ\text{S}$; $j = 1,0$;

fermenterdan chiqishda xavo bosim $P_2 = 0.03\text{-}0.4 \text{ MPa}$;

$r_{to'y.} = 5622 \text{ Pa}$ (XXXVIII [1] jadval bo'yicha 35°S xaroratda).

U xolda

$$x_2 = \frac{0.622 \times 1.0 \times 5622}{0.4 \times 10^6 - 1.0 \times 5622} = 8.87 \times 10^{-3} \text{ kg} / \text{kg}$$

$$I_2 = (1.01 + 1.97 \times 8.83 \times 10^{-3}) \times 35 + 2493 \times 8.83 \times 10^{-3} = 58 \text{ kJ} / \text{kg}$$

$$\rho_2 = \frac{3.48 \times 10^{-3}}{35 + 273} \times (0.4 \times 10^6 - 0.378 \times 1.0 \times 5622) = 4.5 \text{ kg} / \text{m}^3$$

$$Q_4 = \frac{50 \times 70 \times 4.5 \times 5622}{3600} = 253.75 \text{ kJ}$$

Suv bilan chiqib ketadigan issiqlik miqdori:

$$Q_5 = Q_1 + Q_2 + Q_3 - Q_4 - Q_6$$

$$Q_5 = 544 + 117.28 + 190.4 - 253.75 - 25.25 = 572.38 \text{ kJ}$$

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

Issiqlikning atrof muxitga yo'qotilishi:

$$Q_6 = 0.03 \times (Q_1 + Q_2 + Q_3)$$

$$Q_6 = 0.03 \times (544 + 117.4 + 190.4) = 25.55 \text{ kBm}$$

ISHLAB CHIQARISHNING TEXNO-KIMYOVIY NAZORATI

Organoleptik aniqlanadigan ko'rsatkichlari bo'yicha ozuqa riboksini jadvalda ko'rsatilgan talablarga mos bo'lishi kerak.

Jadval 1

	Organoleptik aniqlanadigan ko'rsatkichlar
Ko'rsatkichlarning nomlanishi	Xarakteristika
Tashqi ko'rinishi	Kristal oq rangdagi massa
ta'mi	Spetsifik sho'r
xidi	Spetsifik
Eruvchanligi	Suvda yaxshi eriydi

Kimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha riboksin jadvalda ko'rsatilgan talablarga mos bo'lishi kerak.

Kimyoviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlarining nomlanishi	me'yori
Namlikning yalpi ulushi, %,	22,0
Riboksinning yalpi ulushi (quruq moddalar hisobida), %,	75,0
Natriy xlorning yalpi ulushi, %, ne bolee	5,0
Umumiy azotning miqdori	7,02

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

ASOSIY USKUNANI AVTOMATLASHTIRISH

Asosiy uskuna barbaterli fermenter

Kirish.

Kimyo, oziq-ovqat sanoati va texnologiyasi va boshqa texnologilar sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar xalq xo'jaligining texnik taraqqiyoti. Mustaqil mamlakatimizning iqtisodiyati va madaniyatini rivojlantirish, aholining turmush farovonligini oshirish uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan sanoatni yaratish va boshqarish uchun asos bo'ladi.

Sanoatni avtomatlashtirishning ahvoli va istiqbollarini baholashda faqat avtomatik boshqarish sistemalari va avtomatikaning texnik vositalari tafsifnomasi bilangina cheklanib qolmasdan, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, boshqarishning sistema va vositalarini tashkil etishning xamda iqtisodning o'zaro shartlashilgan muamolarini keng qamrovda qarab chiqilishi kerak. Bunda shuni xisobga olish kerakki, avtomatlashtirish –uzliksiz rivojlanuvchi jarayon bo'lib, ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari va fan – texnikaning ko'pchilik sohalari bilan uzviy bog'langandir.

Sanoat tarmoqlarining amaldagi korxonalarini avtomatlashtirish tizimlarini ishlab chiqish va bevosita ishlab chiqarish jarayonlariga joriy qilish – ko'p bosqichli jarayondir. Unga ilmiy tadqiqot, loyihalash va montaj – sozlash ishlari, shuningdek, ishlatish jarayonida avtomatlashtirish tizimlarining ishonchli ishlashini ta'minlovchi tadbirlar majmuasi kiradi.

Zamonaviy ishlab chiqarishning jarayonlarini avtomatlashtirishda hal qilinadigan masalalar mutaxassislardan turli avtomatlashtirish asboblarning tuzilish va ishlash prinsiplarini, avtomatik tizimlarning turli ko'rinishlari va

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

sinflarini, yasash metodlarini bilishni ham, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish sohasidagi ishlar bilan birga aniq va bir qiymatli almashish mumkin bo'lgan umumiy texnik tilni egallashni ham talab qiladi.

Qurilayotgan obyektning murakkabligiga qarab loyiha ma'lum qismlardan iborat bo'ladi. Loyihada texnika – iqtisodiy, texnologik, qurilish, santexnika, elektr, avtomatika kabi qismlar bo'lishi mumkin. Avtomatlashtirish loyihasining bir bo'limi bo'lib, texnologik jarayonlarni nazorat qilish avtomatik rostlash hamda boshqarish masalalarini qamrab oladi. Loixaning boshqarish qismi shu sohaga ixtisoslashtirilgan tashkilot yoki texnologik loyihalash institutining avtomatlashtirish bo'limi (guruhi) amalga oshiradi. Bu loyiha texnologik jarayonlarning ratsional ishlashini va uskunalar ishidagi xavfsizlikni tahminlovshi nazorat o'lshov asboblarini, rostlagishlar, avtomatika va signalizatsiya qurilmalarini, loyihalashtirilayotgan obyektda ishlatiladigan texnikaviy hujjatlarni o'z ishiga oladi.

Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarining ko'pchiligi to'liq avtomatlashtirilganligi bilan xarakterlanadi. Avtomatlashtirish barcha uskunalarning avariyasiz ishlashini tahminlaydi, baxtsiz xodisalarning va atrof-muhitning zaxarlanishini oldini oladi

Xar bir texnologii jarayon (texnologik jarayon parametrlari deb ataluvshi) o'zgaruvshan fizikaviy va kimyovny kattaliklar (bosim, sarf, temperatura, namlik, konsentratsiya va x. k.) bilan xarakterlanadi. Texnologik jarayonning tug'ri o'tishini tahminlashi ushun muayyan jarayonni xarakterlovshi parametrlarni berilgan kiymatda ushlab turish lozim.

Texnik jarayonlarda odamning ishtirok etishiga ko'ra avtomatlashtirishni quyidagilarga ajratish mumkin: avtomatik nazorat, avtomatik rostlash va avtomatik boshqarish.

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

Boshqaruv tizimi asosan quyidagi elementlardan iborat bo‘ladi, qurilma, o‘lshovshi qurilma, rostlagich va ijroshi qurilma. Boshqarishtizimining asosiy vazifasi, maxsulot tan narxini kamaytirish, sifatini yaxshilash va maxsulot chiqish miqdorini ko‘paytirish. Buning uchun texnologik jarayon ko‘rsatkishlarini (T, R, F, L, Q va x.k.) kerakli qiymatda (texnologik reglament asosida) dastur asosida boshqarish.

Texnologik jarayonlarni avtomatik boshkarishning vazifasi rostlagich yordamida rostlanuvchi ob‘ektdagi kerak bo‘lgan texnologik sharoitni avtomatik ravishda saqlash, agar bu sharoit buzilsa, uni qayta tiklashdan iboratdir.

SHunday kilib, sanoatning eng muxim talablaridan biri — texnologik jarayonning turg‘unlashgan (optimal) rejimini saqlashdan iborat.

Xozirgi kunda ABT –hisoblash texnikasi va mikroprotessorli qurilmalar asosida tashkil etilmoqda , natijada boshqarish tizimlari “odam –hisoblash mashinasi” muloqat tizimida ishlamoqda. Texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish tizim yaratish GOST va OST talablariga ko‘ra mahlum normativ talabnomalar va ko‘rsatmalar asosida bajariladi.


Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi talabalari bitiruv malakaviy ishlarida, texnologik parametrlarni o‘lchash va rostlash qurilmalarini talab jarayon boshqarish tizimini yaratishlari kerak.

Malakaviy bitiruv ishimda Subtilis probiotigini ishlab chiqarish texnologiyasi ko‘rib chiqildi Subtilis preparatini olish uchun bir nechta unsir aralashtirgichda yaxshilab aralashtirib olinadi. So‘ngra par yordamida namlanadi va issiqlik olmashtirgichda, to‘rt bosqichli qurilmada par yordamida 40-50⁰S issitiladi. Kegin ozuqa muxiti Subtilis preparati sovitgichga yuboriladi va 20⁰S sovitiladi. Kegin ozuqa muxiti inokulyator va fermenterdan o‘tib maxsulot tayyor bo‘ladi. Bu texnologik tizimda ikkita qurilma issiqlikolmoshtirgich va

					Ozuqa riboflavin ishlab chiqarish texnologiyasi	vara ^q
O‘zgar	bet	hujjat №	imzo	sana		

sovitish qurilmalarida boshqariluvchi parametrlar borligi sababli shu qurilmalarni avtomatlashtirdim.

Boshqariluvchii obhekt –issiqlik olmashtirguvchi.



Rasm.1.

Boshqariluvchi ko‘rsatkich –.oziqa muxitixarorati.

Boshqaruvchi ko‘rsatkich - Parning sarfi.

Jarayondagi o‘zgariladigan ob’ektni asosiy ko‘rsatkichi:

